

EMLASHDAN BOSH TORTISH SABABLARI VA ULARNING JAMOAT SALOMATLIGIGA TA'SIRI

ПРИЧИНЫ ОТКАЗА ОТ ВАКЦИНАЦИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОБЩЕСТВЕННОЕ ЗДОРОВЬЕ

REASONS FOR REFUSING VACCINATION AND THEIR IMPACT ON PUBLIC HEALTH

Xamidullayeva E'zoza Qilichbek qizi

ORCID:0009-0005-8570-3796, Eurasian Multidisciplinary
University, Tashkent, Uzbekistan, student.

Annotatsiya. Emlashdan bosh tortish holatlari profilaktik tibbiy xizmatlar uchun dolzarb muammolardan biri bo'lib, emlash qamrovining pasayishi yuqumli kasalliklarning tarqalish xavfini oshirishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi emlashdan bosh tortish sabablarini aniqlash, ularning ustuvorligini baholash hamda emlashga ishonch va jamoat salomatligi ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini o'rganishdan iborat edi. Mazkur farqlar emlashga munosabat shakllanishida ishonch, xavotir va axborot bilan bog'liq omillarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati emlashdan bosh tortish sabablarini ustuvorlik darajasi bo'yicha baholash va ushbu natijalardan oilaviy shifokorlar hamda profilaktika bo'limlarida maqsadli kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Kelgusida hududiy farqlar va vaqt davomida yuz beradigan o'zgarishlarni baholashga qaratilgan kuzatuv tadqiqotlarini o'tkazish maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: immunizatsiya qamrovi, jamoat salomatligi, tartibli logit modeli, vaksinaga ishonch, emlashdan bosh tortish.

Аннотация. Отказ от вакцинации является одной из актуальных проблем профилактической медицины, поскольку снижение охвата вакцинацией может повышать риск распространения инфекционных заболеваний. Цель исследования заключалась в выявлении причин отказа от вакцинации, оценке их приоритетности и изучении их связи с доверием к вакцинации и показателями общественного здоровья. Полученные различия свидетельствуют о важной роли доверия, тревожности и информационных факторов в формировании отношения к вакцинации. Научно-практическая значимость исследования заключается в оценке причин отказа от вакцинации по степени их приоритетности, что может быть использовано семейными врачами и

профилактическими подразделениями для разработки целевых коммуникационных стратегий. В дальнейшем целесообразно проведение наблюдательных исследований с учетом региональных различий и изменений во времени.

Ключевые слова: охват иммунизацией, общественное здоровье, порядковая логистическая регрессия, доверие к вакцинам, отказ от вакцинации.

Abstract. Vaccination refusal is one of the current challenges in preventive medicine, as declining vaccination coverage may increase the risk of infectious disease transmission. The aim of this study was to identify the reasons for vaccination refusal, assess their priority, and examine their association with vaccine confidence and public health indicators. These differences indicate the important role of trust, anxiety, and information-related factors in shaping attitudes toward vaccination. The scientific and practical significance of the study lies in assessing the reasons for vaccination refusal according to their priority, which may help family physicians and preventive health services develop targeted communication strategies. Further observational studies incorporating regional differences and changes over time are warranted.

Keywords: immunization coverage, public health, ordinal logistic regression, vaccine confidence, vaccination refusal.

KIRISH

Emlashdan bosh tortish va vaksinaga nisbatan ikkilanish immunizatsiya qamroviga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi [1]. Vaksinaga ikkilanish turli ijtimoiy, psixologik va axborot omillari bilan bog'liq bo'lib, immunizatsiya dasturlarining samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin [2]. Vaksinaga ikkilanish ko'plab kontekstga bog'liq omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab hodisa bo'lib, uning sabablari turli populyatsiyalarda farq qilishi mumkin [3]. Emlashga munosabatni shakllantiruvchi omillar qatorida vaksinaning xavfsizligi va samaradorligiga oid qarashlar hamda tibbiyot tizimiga bo'lgan ishonch muhim o'rin tutadi. Tadqiqot ob'ekti — emlash yoshidagi aholining emlashga munosabati. Tadqiqot predmeti — emlashdan bosh tortish sabablari, vaksina qamrovi va jamoat salomatligiga ta'sir. Vaksinaga ikkilanishning shakllanishida xavfsizlikka oid xavotirlar, noto'g'ri axborot va tibbiyot hamda sog'liqni saqlash tashkilotlariga bo'lgan ishonch kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot vazifalari: 1) emlashdan bosh tortish sabablarini aniqlash; 2) emlashga ishonch darajasini o'lchash; 3) vaksina qamrovini taqqoslash; 4) jamoat salomatligi ko'rsatkichlarini solishtirish; 5) omillar o'rtasidagi epidemiologik bog'lanishni "tartibli logit modeli yordamida" tekshirish. Asosiy gipoteza: xavotir va ishonchsizlik kuchaygan sari vaksina qamrovi kamayadi hamda jamoat salomatligiga salbiy ta'sir ortadi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi ko'ndalang kesimli tadqiqot dizayniga

asoslandi. Tadqiqotda emlashga ishonch va emlashdan bosh tortish sabablari o'rtasidagi bog'liqlikni baholashga alohida e'tibor qaratildi. Olingan natijalar oilaviy shifokorlar va profilaktika bo'limlarida emlashga oid maqsadli kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqot materiali sifatida vaksina ikkilanishi, emlashdan bosh tortish, vaksinaga ishonch, immunizatsiya qamrovi va jamoat salomatligiga oid ilmiy maqolalar, tizimli sharhlar hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining uslubiy qo'llanmalari tanlandi. Manbalarni tanlashda vaksina ikkilanishining sabablari, vaksinaga bo'lgan ishonch, emlashga munosabat va emlash qamroviga ta'sir qiluvchi omillarni yorituvchi ilmiy ishlar ustuvor hisobga olindi. Tadqiqot adabiyotlar tahliliga asoslangan tavsifiy-tahliliy yondashuv asosida olib borildi. Vaksina ikkilanishining ta'rif va asosiy determinantlarini aniqlashda MacDonald va SAGE ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvdan foydalanildi. Mazkur yondashuvda vaksina ikkilanishi emlash xizmatlari mavjud bo'lishiga qaramay, emlashni kechiktirish yoki undan voz kechish bilan bog'liq murakkab va kontekstga bog'liq hodisa sifatida qaraladi [1]. Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida emlashdan bosh tortish va vaksina ikkilanishiga ta'sir qiluvchi omillar bir necha asosiy guruhlariga ajratildi: vaksinalarga va tibbiyot tizimiga ishonch, vaksinalarning xavfsizligi va samaradorligi haqidagi qarashlar, kasallik xavfini idrok etish, axborot va noto'g'ri axborot, ijtimoiy muhit, tibbiyot xodimlarining tavsiyasi hamda emlash xizmatlaridan foydalanishdagi amaliy to'siqlar. Bunday guruhlash WHOning xulq-atvor va ijtimoiy omillar (BeSD) tizimidagi yondashuvga moslashtirildi. Har bir manbada qayd etilgan omillar mazmunijihatdan solishtirildi. Bir nechta tadqiqotlarda takrorlangan omillar alohida qayd etilib, ularning vaksina qabul qilinishiga ta'siri umumlashtirildi. Ayniqsa, vaksina xavfsizligiga oid xavotirlar, tibbiyot xodimlariga bo'lgan ishonch, salbiy axborot va ijtimoiy ta'sir kabi omillarga alohida e'tibor qaratildi. WHO tavsiyalariga muvofiq, vaksina qamrovining pasayish sabablarini faqat aholining individual qarashlari bilan izohlashdan ko'ra, xulq-atvor va ijtimoiy omillarni tizimli ravishda o'rganish zarurligi hisobga olindi. WHO ushbu ma'lumotlardan past qamrov sabablarini aniqlash, tendensiyalarni kuzatish va maqsadli choralarni ishlab chiqishda foydalanishni tavsiya qiladi. Tahlil natijalarini umumlashtirishda manbalarda uchragan fikrlarning o'xshash va farqli jihatlari solishtirildi. Shuningdek, vaksina ikkilanishining vaqt, hudud, vaksina turi va ijtimoiy guruhlariga qarab o'zgarishi mumkinligi hisobga olindi [1,3]. Yakunda emlashdan bosh tortishning asosiy omillari va ularni kamaytirishga qaratilgan kommunikatsion hamda profilaktik yondashuvlar umumlashtirildi.

NATIJALAR

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili vaksina ikkilanishi oddiy "emlash tarafdori" yoki "qarshi" degan ikki guruhdan iborat holat emasligini ko'rsatdi. MacDonald vaksina ikkilanishini emlash xizmatlari mavjud bo'lsa-da, emlashni qabul qilishni kechiktirish yoki undan voz kechish bilan bog'liq holat sifatida ta'riflagan. Ushbu hodisa vaqt, hudud va vaksina turiga qarab o'zgarishi, uning shakllanishida ishonch, befarqlik va qulaylik kabi omillar ishtirok etishi qayd etilgan [1]. Global adabiyotlar tahlili vaksina ikkilanishi ko'plab kontekstga bog'liq omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab hodisa ekanini ko'rsatdi. Larson va hammualliflarining 2007–2012-yillarda chop etilgan tadqiqotlarni qamrab olgan tizimli sharhida vaksina ikkilanishi turli mamlakat va populyatsiyalarda bir xil sabab bilan izohlanmasligi, omillarning ta'siri mahalliy sharoitga bog'liq bo'lishi qayd etilgan [3]. Tahlil qilingan manbalarda vaksinaga ishonch alohida muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Larson va hammualliflarining ishonchni o'rgangan tizimli sharhida vaksina qabul qilinishi aholining vaksinalar va immunizatsiyaning xavfsizligi hamda samaradorligiga, shuningdek sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyot xodimlariga bo'lgan ishonchi bilan bog'liqligi ko'rsatildi [5]. Adabiyotlar tahlilida salbiy axborot va bilim yetishmasligi ham muhim omillar qatorida qayd etildi. Kanadadagi ekspertlar va birlamchi tibbiy yordamda ishlovchi vaksina yetkazib beruvchilar ishtirokidagi konsultatsiya tadqiqotida vaksina ikkilanishining asosiy sabablari sifatida internetdagi salbiy axborotning tarqalishi va vaksinalar haqidagi bilimlarning yetarli emasligi ko'rsatilgan [7]. Tadqiqot ishtirokchilari vaksina ikkilanishini nafaqat munosabat, balki ayrim yoki ko'plab vaksinalardan voz kechish yoki emlashni kechiktirish kabi xatti-harakat sifatida ham tavsiflagan [7]. Vaksinalarning xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlar ham manbalarda izchil uchraydi. Yevropaning to'rtta mamlakatida vaksina yetkazib beruvchi tibbiyot xodimlari bilan o'tkazilgan 65 ta yarim tuzilgan intervyuni o'z ichiga olgan tadqiqotda vaksina ikkilanishi Xorvatiya, Fransiya, Gretsiya va Ruminiyada mavjudligi aniqlangan. Barcha mamlakatlarda eng muhim xavotir vaksinalarning nojo'ya ta'sirlaridan qo'rqish bo'lgan. Yangi vaksinalar esa ularning xavfsizligi va samaradorligi yetarlicha sinovdan o'tkazilmagan degan tasavvur sababli alohida xavotir uyg'otgan [6]. Gripp vaksinasi bo'yicha o'tkazilgan tizimli sharhda 13 ta ma'lumotlar bazasi orqali 2005–2016-yillarda chop etilgan tadqiqotlar izlangan va 470 ta maqola tahlil qilingan. Unda vaksina qabul qilinishiga to'sqinlik qiluvchi omillar orasida ishonchning pastligi, noqulaylik, qarorni ortiqcha hisob-kitob qilish va kasallik xavfini yetarlicha jiddiy qabul qilmaslik kabi omillar turli darajada qayd etilgan. Mualliflar psixologik omillar vaksina qabul qilinishi bilan mazmunli bog'langanini ta'kidlagan. Umumlashtirilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, vaksina ikkilanishi faqat shaxsiy bilim yoki qarashlar bilan chegaralanmaydi. Unga ijtimoiy muhit, axborot oqimi, tibbiyot tizimiga va tibbiyot xodimlariga bo'lgan ishonch, vaksinalarning xavfsizligi haqidagi tasavvurlar hamda

amaliy qulaylik bilan bog‘liq omillar birgalikda ta’sir ko‘rsatadi [1, 3, 5]. WHO tomonidan ishlab chiqilgan xulq-atvor va ijtimoiy omillar tizimida ham vaksina qabul qilinishiga ta’sir qiluvchi omillar “fikrlash va his qilish”, ijtimoiy jarayonlar, emlashga tayyorlik va amaliy to‘siqlar kabi yo‘nalishlarda ko‘rib chiqiladi [8]. Tahlil qilingan manbalar vaksina qamrovining pasayishi jamoat salomatligi uchun muhim oqibatlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Vaksina ishonchining yo‘qolishi emlashga bo‘lgan istakning pasayishi va emlashdan bosh tortish holatlarining ko‘payishiga olib kelishi, natijada vaksina bilan oldini olish mumkin bo‘lgan kasalliklarning qayta tarqalishi xavfini kuchaytirishi mumkin [2]. WHOning amaliy qo‘llanmasida past emlash qamrovini kamaytirish uchun uning sabablarini muntazam o‘rganish, xulq-atvor va ijtimoiy omillarni baholash hamda olingan ma’lumotlarga asoslangan maqsadli choralarni ishlab chiqish zarurligi ko‘rsatilgan. Ushbu yondashuv emlash qamroidagi tengsizliklarni kamaytirish va dasturlarni takomillashtirish uchun ma’lumotlardan tizimli foydalanishni nazarda tutadi [8].

MUHOKAMA

O‘rganilgan ilmiy maqolalar shuni ko‘rsatdiki, vaksina ikkilanishining sabablari bir xil emas. Turli davlatlarda va turli aholi guruhlari orasida emlashga bo‘lgan munosabat har xil bo‘lishi mumkin. Bunga aholining vaksinalar haqidagi qarashlari, tibbiyot tizimiga ishonchi, axborot olish manbalari va boshqa ijtimoiy omillar ta’sir qiladi [1,3].

Adabiyotlarni ko'rib chiqishda vaksinaga bo'lgan ishonch muhim masalalardan biri ekanligi ko'rindi. Vaksinalarning xavfsizligi va samaradorligiga ishonch, shuningdek shifokorlar va sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan ishonch emlashga munosabat bilan bog'liq ekanligi qayd etilgan [5]. Shuning uchun aholining vaksinaga bo'lgan ishonchini oshirish emlash qamrovini yaxshilashda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tahlil qilingan manbalarda vaksinalarning nojo'ya ta'sirlaridan qo'rqish ham tez-tez uchraydigan sabab sifatida ko'rsatilgan. Yevropada tibbiyot xodimlari bilan o'tkazilgan tadqiqotda vaksinalarning nojo'ya ta'sirlaridan xavotirlanish vaktsina ikkilanishining asosiy sabablaridan biri bo'lgan [6]. Bu esa aholiga vaksinalarning foydasi va xavfsizligi haqida tushunarli ma'lumot berish kerakligini ko'rsatadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar ham emlashga bo'lgan munosabatga ta'sir qilishi mumkin. Kanadada o'tkazilgan konsultatsiya tadqiqotida internetdagi salbiy ma'lumotlar va vaksinalar haqidagi bilimlarning yetarli emasligi vaktsina ikkilanishi bilan bog'liq omillar sifatida qayd etilgan. Shu sababli emlash bo'yicha aholiga ishonchli va tushunarli axborot yetkazish muhimdir. Vaktsina ikkilanishi faqat bir kishining shaxsiy qarori bilan bog'liq emas. Emlash qamrovining pasayishi jamoat salomatligiga ham ta'sir qilishi mumkin, chunki emlash darajasi yetarli bo'lmaganda vaktsina bilan oldini olish mumkin bo'lgan kasalliklarning tarqalish xavfi ortadi [2]. WHO tavsiyalarida ham emlashga ta'sir qiluvchi xulq-atvor va ijtimoiy omillarni o'rganish, aholining xavotirlarini aniqlash va shu asosda maqsadli choralar ishlab chiqish zarurligi ko'rsatilgan [8]. Shuning uchun oilaviy shifokorlar va profilaktika xodimlarining aholiga to'g'ri ma'lumot berishi, savollarga tushunarli javob berishi va vaksinalar haqidagi asossiz xavotirlarni kamaytirishga yordam berishi muhim. Umuman olganda, o'rganilgan manbalar vaktsina ikkilanishiga bir nechta omil birgalikda ta'sir qilishini ko'rsatdi. Ayniqsa, ishonch, vaksinalarning xavfsizligi haqidagi xavotirlar va axborotning mazmuni muhim o'rin tutadi [1,5,6]. Shu sababli emlashdan bosh tortishni kamaytirishda aholiga to'g'ri ma'lumot berish va ishonchli kommunikatsiyani kuchaytirish asosiy yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

- 1. O'rganilgan maqolalar asosida vaktsina ikkilanishiga eng ko'p ta'sir qiladigan omillar vaksinalarga ishonchsizlik, xavfsizligi haqidagi xavotirlar va noto'g'ri ma'lumotlar ekanligi aniqlandi [1,5,6].*
- 2. Emlashdan bosh tortish sabablari barcha odamlar uchun bir xil emas. Ular yashash joyi, ijtimoiy muhit, madaniy qarashlar va tibbiyot tizimiga bo'lgan ishonchga qarab farq qilishi mumkin [3,4].*
- 3. Aholiga vaksinalar haqida oddiy va tushunarli ma'lumot berish emlashga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, vaksinalarning*

xavfsizligi va nojo'ya ta'sirlari haqidagi savollarga aniq javob berish muhim [6].

4. Oilaviy shifokorlar va hamshiralar bemorlar bilan suhbat davomida ularning xavotirlarini tinglashi va ishonchli ma'lumot berishi kerak [5].
5. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan noto'g'ri ma'lumotlar ham vaksina ikkilanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli aholiga ishonchli tibbiy manbalardan foydalanishni tavsiya qilish kerak.
6. Emlash qamrovini yaxshilash uchun aholining emlashga munosabati va undan bosh tortish sabablari muntazam o'rganib borilishi maqsadga muvofiq [8].
7. Kelajakda turli yosh guruhlari va hududlarda vaksina ikkilanishining sabablari bo'yicha alohida tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. MacDonald NE. Vaccine hesitancy: Definition, scope and determinants // Vaccine. — 2015. — Vol.33, №34. — P. 4161-4164. DOI: [10.1016/j.vaccine.2015.04.036](https://doi.org/10.1016/j.vaccine.2015.04.036)
2. Dubé E., Laberge C., Guay M., Bramadat P., Roy R., Bettinger J.A. Vaccine hesitancy: An overview // Human Vaccines & Immunotherapeutics. — 2013. — Vol.9, №8. — P. 1763-1773. DOI: [10.4161/hv.24657](https://doi.org/10.4161/hv.24657)
3. Larson H.J., Jarrett C., Eckersberger E., Smith D.M.D., Paterson P. Understanding vaccine hesitancy around vaccines and vaccination from a global perspective: A systematic review of published literature, 2007-2012 // Vaccine. — 2014. — Vol.32, №19. — P. 2150-2159. DOI: [10.1016/j.vaccine.2014.01.081](https://doi.org/10.1016/j.vaccine.2014.01.081)
4. Yaqub O., Castle-Clarke S., Sevdalis N., Chataway J. Attitudes to vaccination: A critical review // Social Science & Medicine. — 2014. — Vol.112. — P. 1-11. DOI: [10.1016/j.socscimed.2014.04.018](https://doi.org/10.1016/j.socscimed.2014.04.018)
5. Larson H.J., Clarke R.M., Jarrett C., Eckersberger E., Levine Z., Schulz W.S., Paterson P. Measuring trust in vaccination: A systematic review // Human Vaccines & Immunotherapeutics. — 2018. — Vol.14, №7. — P. 1599-1609. DOI: [10.1080/21645515.2018.1459252](https://doi.org/10.1080/21645515.2018.1459252)
6. Karafillakis E., Dinca I., Apfel F., Cecconi S., Würz A., Takacs J., Suk J., Celentano L.P., Kramarz P., Larson H.J. Vaccine hesitancy among healthcare workers in Europe: A qualitative study // Vaccine. — 2016. — Vol.34, №41. — P. 5013-5020. DOI: [10.1016/j.vaccine.2016.08.029](https://doi.org/10.1016/j.vaccine.2016.08.029)
7. Dubé E., Gagnon D., Ouakki M. va boshq. Understanding vaccine hesitancy in Canada: Results of a consultation study by the Canadian Immunization Research Network // PLoS ONE. — 2016. — Vol.11, №6. — P. e0156118. DOI: [10.1371/journal.pone.0156118](https://doi.org/10.1371/journal.pone.0156118)
8. World Health Organization. Behavioural and social drivers of vaccination: Tools and practical guidance for achieving high uptake [Elektron resurs]. — URL: <https://www.who.int/publications/i/item/9789240049680> (murojaat sanasi: 18.08.2026)